

MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHGA XIZMATLAR SOHASINI TA'SIRINI OSHIRISH

Achilova Firuza Kurbanovna

Abu Rayhon Beruniy nomidagi
Urganch davlat universiteti
Mustaqil izlanuvchisi, i.f.f.d. (PhD)
ORCID: 0000-0002-8358-5416
Email: achilovaf@gmail.com

Annotatsiya

Mazkur maqolada mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda xizmatlar sohasining o'ri va ta'siri tahlil qilingan. Xizmatlar sektori yalpi hududiy mahsulotni shakllantirish, bandlikni oshirish hamda hududiy raqobatbardoshlikni kuchaytiruvchi muhim omil sifatida asoslab berilgan. Tadqiqotda xizmatlar sohasini rivojlantirishning strategik, institutsional, innovatsion va hududiy yondashuvlari yoritilgan. Olingan natijalarga ko'ra, xizmatlar sektorini raqamli transformatsiya, infratuzilmani rivojlantirish va inson kapitalini mustahkamlash orqali mintaqaning barqaror iqtisodiy o'sishini ta'minlash mumkinligi ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: xizmatlar sohasi, mintaqaviy iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, bandlik, raqamli transformatsiya, infratuzilma, innovatsiya, raqobatbardoshlik..

Аннотация

В статье проанализирована роль и влияние сферы услуг на устойчивое развитие региональной экономики. Сфера услуг обоснована как важный фактор формирования валового регионального продукта, роста занятости и повышения региональной конкурентоспособности. Рассмотрены стратегические, институциональные, инновационные и территориальные подходы к развитию сферы услуг. По результатам исследования показано, что устойчивый экономический рост региона может быть обеспечен за счёт цифровой трансформации, развития инфраструктуры и укрепления человеческого капитала в сфере услуг.

Ключевые слова: сфера услуг, региональная экономика, устойчивое развитие, занятость, цифровая трансформация, инфраструктура, инновации, конкурентоспособность.

Abstract

In this article, the role and impact of the service sector on the sustainable development of the regional economy have been analyzed. The service sector has been substantiated as an important factor in the formation of gross regional product, employment growth, and the enhancement of regional competitiveness. Strategic, institutional, innovative, and territorial approaches to service sector development have been examined. Based on the results obtained, it has been shown that sustainable economic growth of the region can be achieved through digital transformation, infrastructure development, and the strengthening of human capital in the service sector.

Keywords: service sector, regional economy, sustainable development, employment, digital transformation, infrastructure, innovation, competitiveness.

KIRISH

Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda xizmatlar sohasi yetakchi soha bo‘lib hisoblanadi. Chunki, zamonaviy iqtisodiy sharoitda xizmatlar sohasi yalpi hududiy mahsulotning muhim qismini shakllantiradi hamda bandlikni oshirish, aholining daromadlarini ko‘paytirish, innovatsion faollikni kuchaytirish va hududlarning raqobatbardoshligini ta‘minlashda hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Shu bois xizmatlar sohasini taraqqiy qildirishga qaratilgan yondashuvlarni tizimli ravishda ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish obyektiv zarurat sifatida namoyon bo‘ladi. Shunday ekan, xizmatlar sohasi mintaqqa iqtisodiyotining barqaror o‘shida strategik ahamiyat kasb etuvchi yo‘nalish sifatida ijtimoiy, iqtisodiy va innovatsion jarayonlarni muvozanatli amalga oshirishga xizmat qiladi. Xizmatlar sohasi yalpi ichki mahsulot, bandlik, investitsiyalar va raqamli transformatsiya jarayonlarida yetakchi rol o‘ynaydi. Shu bois xizmatlar sektorini taraqqiy ettirish bo‘yicha samarali yondashuvlarni belgilash mintaqaviy rivojlanish strategiyasining asosiy yo‘nalishiga aylanmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Tadqiqotlarga asosan, mintaqada xizmatlar bozorining samaradorligi mavjud tizimda faoliyat ko‘rsatayotgan raqamli texnologiyalar va platformalardan foydalanish darajasiga bog‘liq bo‘lishi lozim [1]. Yana boshqa tadqiqotlarga asosan, ushbu sohaning taraqqiyoti turli faoliyat yondashuvlariga asoslanadi. Ya‘ni bu boradagi tadqiqotlarda xizmat ko‘rsatish sohasini rivojlantirishda tadbirkorlik faoliyatining o‘rni ochib berilgan va sohada kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo‘yicha amaliy takliflar berilgan [2].

Boshqa tadqiqotlar esa xizmatlar sohasining tarmoqlari mintaqalar kesimida shakllanishi va rivojlanishi, ularning hududiy iqtisodiyotga moslashuvi masalalarini o‘rganishga bag‘ishlanadi. Ya‘ni ushbu tadqiqotlarda xizmatlar tarmoqlarini rivojlantirishning hududiy xususiyatlarini hisobga olgan holda ularni samarali joylashtirish va boshqarish bo‘yicha metodik yondashuvlar ishlab chiqilgan. Natijada mintaqaviy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta‘minlashda xizmatlar sohasining rolini kuchaytirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar berilgan [3]. Boshqa yana bir tadqiqotlarda esa mintaqqa xizmatlar sohasini boshqarish va rivojlantirishning metodologik hamda metodik jihatlari o‘rganilgan. Unda mintaqaviy xizmatlar bozorini monitoring qilish, indikatorlar tizimini yaratish va strategik boshqaruv qarorlarini qabul qilish metodologiyalari taklif etilgan. Xususan, mintaqqa xizmatlar sohasining barqaror rivojlanishini ta‘minlashga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan [4].

Shular bilan birgalikda, mintaqqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda xizmatlar sohasini taraqqiy qildirish bo‘yicha har bir mamlakatlarning yondashuvlari o‘rganildi. Jumladan, Janubiy Koreyaning asosiy iqtisodiy hududlarida xizmatlar sektorining ulushi va mintaqaviy farqlar mavjud. Tadqiqot shuni aniqladiki, xizmatlar sektori, ayniqsa shaharlar, masalan, Seul metropoliten hududi milliy YaIMning asosiy qismini tashkil etib, ushbu hududda xizmatlar sektori iqtisodiy o‘shish va aholining ijtimoiy-

iqtisodiy hayotida muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, tashqaridagi mintaqalarda ishlab chiqarish sektori nisbatan yuqoriroq bo'lib, xizmatlar sektorining ulushi pastroq bo'ladi. Ushbu tadqiqot mintaqalar o'rtasidagi iqtisodiy bog'liqlik, migratsiya va xizmatlar sohasining o'sish tendensiyalari orqali Koreya hududlarida iqtisodiy farqlarni yoritadi [5].

Yana bir tadqiqotlarda Yaponiya xizmatlar sektorining globallashuvi va mintaqaviy mehnat bozorining qayta tuzilishiga ta'siri empirik model orqali tahlil qilingan. Xizmatlar sektori korxonalarining xorijdagi investitsiyalari va mahalliy ishchi kuchi bo'yicha ma'lumotlar asosida tahlil olib borilgan. Natijalarda xizmatlar globallashuvi ma'lum sohalarda, xususan axborot-kommunikatsiya xizmatlarida mehnat o'sishini qo'llab-quvvatlashi, ayrim professional xizmatlarda esa ish sharoitlari va ish haqlarining o'zgarishiga olib kelishi aniqlangan. Ya'ni ushbu tadqiqot barqaror mintaqaviy iqtisodiy o'sish uchun xizmatlar sohasining strukturaviy va migratsiya mexanizmlarini chuqur tushunishni asoslaydi [6].

Xitoydagi tadqiqotlarda Hangzhou metropoliten hududi doirasida raqamli iqtisodiyot, mintaqaviy innovatsiya va kadrlar bandligi tizimlari o'rtasidagi uyg'un rivojlanish darajasi o'rganilgan. Tadqiqot xizmatlar sektori, xususan yuqori texnologik xizmatlar bilan bog'liq raqamli transformatsiya va mehnat bozorining integratsiyasi orqali mintaqaviy barqaror o'sish uchun kompleks tizim uyg'unlashuvining muhimligini ko'rsatadi. Natijalar raqamli xizmatlar va innovatsiyalar strategiyasi yordamida mintaqaviy xizmatlar bo'yicha iqtisodiy hamda ijtimoiy barqarorlikni ta'minlashga yo'naltirilgan [7].

Shular bilan birgalikda, mintaqaviy iqtisodiyot bo'yicha amaliy tadqiqotlar laboratoriyasi mintaqaviy iqtisodiyot, hududiy xizmatlar tahlili va tizimli statistik modellashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqot markazi sifatida xizmatlar sohasining mintaqaviy iqtisodiy barqarorlikka ta'siri, hududiy siyosat, bandlik va infratuzilma omillarini o'rganish bo'yicha metodologik tadqiqotlar olib borgan. Ushbu markazning ilmiy yondashuvlari mintaqaviy tahlil va iqtisodiy modellashtirish orqali xizmatlar sektorini iqtisodiy barqarorlik bilan bog'lashni ilmiy asoslaydi [8].

AQSHda xizmatlar sektoridagi tendensiyalarni iqtisodiy jihatdan tahlil qilishga qaratilgan tadqiqotlar bandlikka ta'sir masalalariga alohida e'tibor qaratadi. Aniqrog'i, unda xizmatlar sohasining o'sishi, postindustrial jamiyat shakllanishi va bandlik imkoniyatlarining istiqbollari bilan bog'liq muammolar tahlil qilingan [9]. To'plangan yondashuvlarga asosan, xizmatlar zamonaviy iqtisodiyotda ustun mavqega ega bo'lib boradi. Bu borada olimlar xizmatlar iqtisodiyotining shakllanishi va kelajakdagi rivojlanish istiqbollari bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlarni umumlashtirib tahlil qilganlar. Ushbu tadqiqotlar xizmat ko'rsatish sohasidagi rejalashtiruvchilar, maslahatchilar, menejerlar hamda davlat boshqaruvi vakillari uchun qiziqish uyg'otgan [10]. Tadqiqotlarda xizmatlar sektorining umumiy iqtisodiyotdagi roli, hududlarda xizmatlar samaradorligini oshirish, infratuzilma va siyosat vositalari orqali xizmatlar eksportini rag'batlantirish bo'yicha strategiyalar ko'rib chiqilgan.

O'tkazilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, xizmatlar sohasi mintaqada allaqachon ishlab chiqarish hajmi, iqtisodiy o'sish va bandlikning muhim manbalaridan biriga

aylangan. Bu borada xizmatlar sektorining kambag'allikni qisqartirishga ta'siri aniq va ravshan emas. Biroq ayrim cheklangan dalillar uning ijobiy ta'siri mavjudligini ko'rsatadi.

Shunisi muhimki, Osiyodagi barcha mamlakatlar uchun asosiy muammolardan biri xizmatlar sektori bo'yicha statistik ma'lumotlar sifati va ishonchliligini oshirishdan iborat. Xizmatlar sektorini rivojlantirish uzoq va murakkab jarayon bo'lsa-da, ichki va tashqi siyosiy-institutsional to'siqlarni bartaraf etish orqali yanada raqobatbardosh xizmatlar bozorlarini shakllantirish mehnat unumdorligini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. Mazkur islohotlar qanchalik muhim bo'lmasin, kuchli va samarali xizmatlar sektorini shakllantirish uchun jismoniy infratuzilma va inson kapitaliga yo'naltirilgan qo'shimcha investitsiyalar zarur bo'lib hisoblanadi [11].

Boshqa turdagi tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xizmatlar unumdorligini oshirish ushbu mamlakatlar iqtisodiyotida xizmatlar sektorining o'sishini va umumiy iqtisodiy barqarorlikni kuchaytiradi. Bunda sektor bo'yicha siyosat vositalarining samaradorligi, "qayta strukturaviy o'zgarishlar" va xizmatlar bozorlarini diversifikatsiya qilish mexanizmlari ilmiy asosda yoritilgan [12]. Boshqa tadqiqotlarda esa xizmatlar samaradorligini oshirish, sektor ichida ishchi kuchini diversifikatsiya qilish, davlat siyosati vositalari va infratuzilma investitsiyalarining ta'siri tizimli tahlil qilingan. Ushbu tadqiqot Osiyo mintaqasida xizmatlar sohasida barqaror iqtisodiy strategiyalarni shakllantirish uchun ilmiy asos yaratadi [13]. Xalqaro ilmiy tadqiqotlarda esa xizmatlar sektorini samarali boshqarish orqali kambag'allikni kamaytirish va mintaqaviy barqaror rivojlanishni ta'minlash metodologiyasi, jumladan inson kapitali, raqamli iqtisodiyot va inklyuziv o'sish yondashuvlari kompleks tahlil qilingan. Mazkur metodologik asoslar an'anaviy o'sish nazariyalari, targeting va "sustainable livelihoods" konsepsiyalari orqali asoslangan [14].

Olib borilgan tadqiqotlarda esa O'zbekiston sharoitida mintaqaviy iqtisodiyot va xizmatlar sohasining barqaror rivojlanishida tutgan o'rni umumiy iqtisodiy modelga moslashtirilgan. Ya'ni unda mintaqaviy xizmat infratuzilmasi, strategik rejalashtirish, diversifikatsiya va ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarni tahlil qilish bo'yicha nazariy hamda amaliy materiallar keltirilgan [15]. Yana bir tadqiqotlarda barqaror rivojlanish metodologiyasini "yashil iqtisodiyot" konsepsiyasi asosida shakllantirish asosiy maqsad qilib olingan. Ya'ni ushbu tadqiqot mintaqaviy xizmatlar sektori va ekologik barqarorlikni birlashtirgan metodologik yondashuvni taklif etadi [16]. Boshqa yondashuvlarda mintaqaviy iqtisodiyot konsepsiyalari, hududlararo farqlar, resurslar taqsimoti, mintaqaviy siyosat va o'sish mexanizmlari yoritilgan. Ushbu yondashuvlarda keng qamrovli nazariy asoslar bilan birga amaliy misollar keltirilgan bo'lib, bu talabalar va tadqiqotchilarga mintaqaviy iqtisodiy jarayonlarni chuqur tushunishga yordam beradi [17].

Olib borilgan boshqa tadqiqotlarda esa mintaqada xizmatlar sohasini rivojlantirishni jadallashtirishga qaratilgan tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlar, boshqaruv modellari va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ushbu yo'nalishlar mintaqaviy iqtisodiy siyosatni optimallashtirish, xizmatlar bozorining samaradorligini oshirish hamda mintaqaviy iqtisodiyotning uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta'minlashga

xizmat qiladi [18]. Boshqa bir tadqiqotlarda talabalar mintaqaviy hududlar iqtisodiyotining strukturaviy komponentlarini tahlil qilishga yo'naltirilgan bo'lib, unda hududiy farqlar, siyosat vositalari va mintaqaviy o'sish indikatorlari tushuntiriladi [19]. Boshqa tadqiqotlarga ko'ra, mintaqada xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha metodologik yondashuvlar, baholash ko'rsatkichlari va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ular bevosita hududiy iqtisodiy siyosatni takomillashtirish, xizmatlar bozorining samaradorligini oshirish hamda mintaqaviy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan [20].

METODOLIGIYA

Mazkur tadqiqot ishini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida qo'llaniladigan usullardan samarali foydalanildi. Xususan, ushbu maqolada mintaqaviy iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda xizmatlar sohasini taraqqiy qildirish yondashuvlarini tadqiq qilishda mantiqiy fikrlash, ilmiy abstraksiyalash, ma'lumotlarni guruhlash, analiz va sintez, induksiya va deduksiya kabi usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Mintaqada xizmatlar sohasini rivojlantirish masalalari kompleks va tizimli yondashuv asosida tahlil qilinadi. Mintaqalarda xizmatlar sohasining rivojlanish darajasi va tarkibiy tuzilmasi statistik hamda iqtisodiy-matematik usullar yordamida baholanadi. Xususan, xizmatlar turlari bo'yicha hududiy notekisliklar, talab va taklif muvozanati, xizmatlar hajmi va sifati, bozor infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi hamda raqobat muhiti tahlil qilinadi. Shu asosda xizmatlar sektorining samaradorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillar aniqlanadi.

Fikrimizcha, mintaqaviy iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda xizmatlar sohasini taraqqiy qildirish quyidagi yondashuvlardan tarkib topadi:

1. Strategik yondashuvlar:

- raqamli transformatsiya va elektron xizmatlar. Raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmatlar sohasi raqamli transformatsiya orqali yangi bosqichga o'tmoqda. Bugungi kunda raqamli infratuzilma, elektron xizmatlar va innovatsion platformalar xizmatlar sifatini oshirib, sohani tezkor va shaffof qilishda muhim rol o'ynaydi. Raqamli yondashuv orqali xizmatlar tez, qulay va arzon tarzda taqdim etilishi, mijozlar talabini samarali qondirishi mumkin. Uning tavsifiga elektron xizmatlar shaklida davlat va xususiy sektor xizmatlarini onlayn formatda taqdim etish hamda raqamli platformalarga asoslangan xizmatlar bozorini virtual makonda boshqarish va monitoring qilish kabilar xos bo'ladi;

- sun'iy intellekt va mashinali o'qitish texnologiyalari. Ushbu texnologiyalar xizmat ko'rsatishda avtomatlashtirish va oldindan prognozlash imkoniyatlarini mustahkamlashga xizmat qiladi;

- innovatsiyalarni joriy etish. Bu borada xizmatlar sohasi innovatsiyalar yo'nalishida rivojlanishi uchun texnologik yangiliklar, raqamli integratsiya va ilm-fan bilan bog'liq jarayonlarni keng joriy etish zarur. Innovatsiyalar xizmatlar

samaradorligini oshiradi, narxni pasaytiradi, yangi bozorlar ochadi va iste'molchilarga qo'shimcha qulayliklar yaratadi.

2. Strukturaviy yondashuvlar:

- mahalliy infratuzilmani mustahkamlash. Xizmatlar sohasi infratuzilma darajasiga bevosita bog'liq bo'ladi. Shu bois mintaqaviy infratuzilma sifatida transport, aloqa, energetika va raqamli tarmoqlar samarali rivojlanishi lozim. Qulay infratuzilma xizmatlarni tez va samarali yetkazib berishga, shuningdek, hududlararo integratsiyani mustahkamlashga xizmat qiladi. Ularga transport va tashish xizmatlarini modernizatsiya qilish, keng polosali internet tarmoqlarini kengaytirish va elektron tijorat infratuzilmasiga investitsiya jalb etish xos bo'ladi;

- mahalliy yondashuv va ijtimoiy xizmatlar. Xizmatlar sektorini mahalliy aholi ehtiyojlariga yo'naltirish va ijtimoiy xizmatlarni kengaytirish soha samaradorligini oshiradi. Mahalliy xizmatlar sifatida ta'lim, sog'liqni saqlash va kommunal xizmatlar sifatini yaxshilash hududiy farovonlikni oshiradi hamda migratsiya ta'sirini kamaytiradi.

3. Institutsional va siyosat yondashuvlari:

- davlat siyosati va tartibga solish mexanizmlari. Xizmatlar sektorini taraqqiy ettirishda davlat siyosati samarali tartibga solish mexanizmlarini ishlab chiqishi lozim. Bu bevosita xizmatlar bozorini liberalizatsiya qilish, investitsiyalarni jalb etish, raqobatni oshirish va standartlarni belgilash orqali amalga oshiriladi. Jahon banki hisobotlariga ko'ra, xizmatlar savdosini liberalizatsiya qilish real YaIMni 17 foizga oshiradi. Bu esa mintaqaviy iqtisodiyotning barqaror o'sishini kuchaytiradi;

- ta'lim va kadrlar salohiyati. Xizmatlar sektori yuqori malakali mutaxassislarni talab qiladi. Shu bois ta'lim tizimini takomillashtirish, kasbiy ko'nikmalarni oshirish va xususiy sektor bilan hamkorlikni kuchaytirish zarur. Bu IT, marketing, logistika va moliyaviy xizmatlar sohalarida muhim ahamiyat kasb etadi.

4. Iqtisodiy yondashuvlar:

- kichik biznes va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik xizmatlar sohasi barqaror o'sishining asosiy resursi bo'lib hisoblanadi. Mintaqaviy iqtisodiyotda ushbu soha bandlikni oshiradi, innovatsion g'oyalarni amaliyotga tatbiq etib, xizmatlar tanlovini kengaytiradi. Uning elementlarini qo'llab-quvvatlash orqali xizmatlar sektorida ishlashni yanada jozibador qilish mumkin;

- diversifikatsiya yo'nalishlari. Xizmatlar sektorining diversifikatsiyasi, xususan turizm, logistika, moliyaviy, sog'liqni saqlash va ta'lim xizmatlari kabi yo'nalishlarni kengaytirish mintaqaviy iqtisodiyotning barqarorligini oshiradi. Ushbu strategiya iqtisodiyotning bir tarmoqqa qaramligini kamaytiradi hamda risklarni diversifikatsiya qilish orqali barqaror o'sishga xizmat qiladi.

5. Innovatsion yondashuvlar:

- texnologik transformatsiya. Xizmatlar sohasi texnologik transformatsiyani qabul qilganda samaradorlik va raqobatbardoshlik darajasi oshadi. Sun'iy intellekt, avtomatlashtirish va raqamli platformalar xizmatlarni tezlashtiradi hamda xarajatlarni pasaytiradi. Raqamli xizmatlar integratsiyasi yangi bozorlarni ochadi va investitsiyalarni jalb etadi;

- analitik va prognoz yondashuvlar. Xizmatlar bozorining holatini baholash va prognoz qilish uchun analitik instrumentlar qoʻllaniladi. Masalan, iqtisodiy koʻrsatkichlar, talab-taklif tahlili va statistik modellashtirish mintaqa xizmatlar sektorining istiqbolini belgilaydi.

6. Ijtimoiy va ekologik yondashuvlar:

- ijtimoiy inklyuzivlik. Xizmatlar sohasi iqtisodiy barqarorlikni oshirish bilan birga ijtimoiy inklyuzivlikni kuchaytiradi. Sogʻliqni saqlash, taʼlim va ijtimoiy xizmatlar aholining barcha qatlamlari uchun imkoniyatlar yaratib, ijtimoiy farovonlikni oshiradi;

- ekologik barqarorlik. Xizmatlar sektorida ekologik yondashuvlarni joriy etish zarur. Masalan, turizm sohasida ekologik xizmatlar boʻyicha loyihalar yaratish atrof-muhitni asrash bilan birga barqaror iqtisodiy oʻsishni taʼminlaydi.

Umuman olganda, mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda xizmatlar sohasini taraqqiy qildirish yondashuvlari quyidagicha tavsiflanadi (1-jadval).

1-jadval.

Mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda xizmatlar sohasini taraqqiy qildirish yondashuvlari¹

№	Yondashuvlar tasnifi	Mazmuni	Asosiy maqsad	Kutilayotgan natija
1	Institutsional yondashuv	Huquqiy-meʼyoriy baza va boshqaruv institutlarini takomillashtirish	Xizmatlar sohasida samarali boshqaruvni yoʻlga qoʻyish	Xizmatlar bozorida barqarorlik va shaffoflik
2	Tarmoqlararo integratsiya yondashuvi	Xizmatlar sohasini sanoat, qishloq xoʻjaligi va logistika bilan bogʻlash	Qoʻshimcha qiymat zanjirini kengaytirish	Hududiy iqtisodiy faollikning oshishi
3	Innovatsion yondashuv	Raqamli texnologiyalar va yangi xizmat turlarini joriy etish	Xizmatlar sifati va samaradorligini oshirish	Raqobatbardoshlik va innovatsion faollik kuchayishi
4	Hududiy differensial yondashuv	Har bir hududning ixtisoslashuviga mos xizmatlarni rivojlantirish	Mintaqaviy tafovutlarni qisqartirish	Hududlararo muvozanatli rivojlanish
5	Ijtimoiy yoʻnaltirilgan yondashuv	Bandlik va aholining turmush darajasini oshirishga qaratish	Ijtimoiy barqarorlikni taʼminlash	Yangi ish oʻrinlari va daromadlar oʻsishi
6	Barqaror rivojlanish yondashuvi	Ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy omillar uygʻunligi	Uzoq muddatli rivojlanishni taʼminlash	Xizmatlar sektorining barqaror oʻsishi

Ushbu 1-jadvalga asosan, har bir yondashuvni quyidagicha izohlab chiqamiz:

Birinchidan, institutsional yondashuv xizmatlar sohasini rivojlantirishning asosiy poydevorini tashkil etadi. Ushbu yondashuv doirasida xizmatlar bozorini tartibga soluvchi huquqiy-meʼyoriy hujjatlarni takomillashtirish, davlat va xususiy sektor

¹ Muallif ishlanmasi.

oʻrtasidagi hamkorlik mexanizmlarini rivojlantirish, boshqaruv institutlari faoliyatini optimallashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Institutsional muhitning mustahkamligi xizmatlar sohasida investitsiyalarni jalb etish, tadbirkorlik subyektlari faoliyatini ragʻbatlantirish va bozor munosabatlarining shaffofligini taʼminlashga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, tarmoqlararo integratsiya yondashuvi xizmatlar sohasining real sektor bilan uzviy bogʻliqligini kuchaytirishga qaratilgan. Xizmatlar sohasi sanoat, qishloq xoʻjaligi, transport, savdo va logistika tarmoqlari bilan chambarchas bogʻliq holda rivojlanganda, hududda qoʻshimcha qiymat yaratish imkoniyatlari kengayadi. Masalan, logistika, moliyaviy, konsalting va axborot xizmatlarining rivojlanishi ishlab chiqarish samaradorligini oshiradi va mintaqa iqtisodiyotining umumiy raqobatbardoshligini mustahkamlaydi.

Uchinchidan, innovatsion yondashuv xizmatlar sohasini taraqqiy qildirishda muhim strategik yoʻnalish boʻlib hisoblanadi. Raqamli texnologiyalar, sunʼiy intellekt, onlayn platformalar va avtomatlashtirilgan xizmat turlarini joriy etish orqali xizmatlar sifati sezilarli darajada oshadi. Innovatsion xizmatlar mijozlar ehtiyojlarini tezkor va samarali qondirish imkonini berib, xizmatlar bozorida yangi segmentlarning shakllanishiga olib keladi. Bu esa mintaqada innovatsion muhitni rivojlantirish va raqamli iqtisodiyotga oʻtish jarayonini jadallashtiradi.

Toʻrtinchidan, hududiy differensial yondashuv mintaqa iqtisodiyotining oʻziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda xizmatlar sohasini rivojlantirishni nazarda tutadi. Har bir hududning tabiiy resurslari, demografik holati, ishlab chiqarish salohiyati va ixtisoslashuviga mos xizmat turlarini rivojlantirish hududlararo iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishga xizmat qiladi. Natijada xizmatlar sohasi hududiy rivojlanishning muhim drayveriga aylanadi.

Beshinchidan, ijtimoiy yoʻnaltirilgan yondashuv xizmatlar sohasining ijtimoiy ahamiyatini kuchaytirishga qaratilgan. Taʼlim, sogʻliqni saqlash, madaniyat, turizm va kommunal xizmatlarning rivojlanishi aholining turmush sifatini oshiradi hamda ijtimoiy barqarorlikni taʼminlaydi. Shu bilan birga, xizmatlar sohasi mehnat talabchanligi yuqori boʻlgan tarmoq sifatida yangi ish oʻrinlari yaratishda muhim rol oʻynaydi.

Oltinchidan, barqaror rivojlanish yondashuvi xizmatlar sohasini rivojlantirishda iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillar uygʻunligini taʼminlashga qaratilgan. Ushbu yondashuv uzoq muddatli istiqbolda mintaqa iqtisodiyotining barqaror oʻsishini taʼminlash, resurslardan oqilona foydalanish va ekologik xavfsizlikni saqlash imkonini beradi. Natijada xizmatlar sohasi hozirgi ehtiyojlar va kelajak avlod manfaatlarini qondiradigan tizim sifatida shakllanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqotlar asosida mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishda xizmatlar sohasining strategik oʻrni yana bir bor tasdiqlandi. Tahlillar xizmatlar sektori zamonaviy iqtisodiyotda yalpi hududiy mahsulot, bandlik, innovatsion faollik va hududiy raqobatbardoshlikni taʼminlashda muhim omil ekanini koʻrsatdi. Xizmatlar sohasi rivoji raqamli transformatsiya, infratuzilma modernizatsiyasi, inson kapitali salohiyati va davlat siyosatining izchil qoʻllab-quvvatlashi bilan chambarchas bogʻliq.

Xizmatlar sektorining tarkibiy diversifikatsiyasi, hududiy ixtisoslashuvga asoslangan yondashuvlar, innovatsion texnologiyalarning keng joriy etilishi va ijtimoiy xizmatlarning sifat jihatdan yaxshilanishi iqtisodiy barqarorlikka xizmat qilishi mumkin. Turli mamlakatlar tajribasi xizmatlar sektorini mintaqaviy siyosatning ajralmas tarkibiy qismi sifatida baholash zarurligini asoslaydi.

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Hududiy infratuzilmani rivojlantirish orqali xizmatlar sohasining transport, aloqa va raqamli texnologiyalar bilan uyg'unligini mustahkamlash;

2. Ta'lim va malaka oshirish tizimini takomillashtirish, ayniqsa axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, marketing va moliyaviy xizmatlar bo'yicha mutaxassislar tayyorlashni kengaytirish;

3. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini qo'llab-quvvatlash orqali xizmatlar bozorida innovatsiyalar va yangi ish o'rinlari yaratilishini rag'batlantirish;

4. Raqamli xizmatlarni rivojlantirishga investitsiyalarni jalb qilish, elektron platformalar va onlayn xizmatlar tarmog'ini kengaytirish;

5. Xizmatlar sektorida ekologik va ijtimoiy mas'uliyatni oshirish, barqaror rivojlanish tamoyillarini amaliyotga tatbiq etish.

Ushbu takliflarning amaliyotga joriy etilishi mintaqa iqtisodiyotining barqaror, diversifikatsiyalashgan va inklyuziv o'sishini ta'minlashga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Xudayberganov D.T. Tovarlar va xizmatlar bozori samaradorligini oshirishning metodologiyasini takomillashtirish. DSc. dissertatsiya avtoreferati. - Urganch: UrDU, 2023. - 15 b.

2. Xayitov J.X. Xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishda tadbirkorlikning o'rni. // Экономика и социум, №6(109), 1, 2023. - 520 b.

3. Шилин А.В. Региональные особенности формирования и развития отраслей сферы услуг. // Автореферат диссертации. - Кисловодск: ВГТУ, 2004.

4. Башмачникова Е.В. Управление функционированием и развитием сферы услуг региона: методологические и методические аспекты // Автореферат диссертации. - Кострома: ТГАС, 2005.

5. Lee S., Ishiro T. Regional economic analysis of major areas in South Korea: using 2005–2010–2015 multi-regional input–output tables. // Journal of Economic Structures, Volume 12, article number 12, (2023).

6. Sachiko K. Service Sector Globalization and the Restructuring of Regional Employment. Keio University. // RIETI Discussion Paper Series 25-E-099 October 2025.

7. Qiu L. Coupling Coordinated Development among Digital Economy, Regional Innovation and Talent Employment A case study of Hangzhou Metropolitan Circle, - China. General Economics. 2023.

8. Regional Economics Applications Laboratory (REAL). University of Illinois at Urbana-Champaign, 1989.

9. Thomas M., Stanback Jr. Understanding the Service Economy: Employment, Productivity, Location. Johns Hopkins University Press, 1979.

10. Illeris S. The Service Economy: A Geographical Approach. ISBN: 978-0-471-96618-0. December, 1996. - 248 p.
11. Noland M., Park D., Bolotaulo E.G. Developing the Service Sector as Engine of Growth for Asia: An Overview November 2012SSRN Electronic Journal. DOI:10.2139/ssrn.2198159.
12. Lee J.-W., Warwick J.Mc.Kibbin. Service sector productivity and economic growth in Asia. Economic Modelling. Volume 74, August 2018. - pp. 247-263.
13. Park D., Noland M.. Developing the Service Sector As an Engine of Growth for Asia. Asian Development Bank. Philippines, 2013.
14. Dauletmuratov A.M. Reducing poverty through effective management of the service sector: scientific and methodological approaches. World Bulletin of Management and Law. Volume-53 December-2025.
15. Shadiyeva G.M., Sharipov T.S., Sultonov Sh.A., Artikov Z.S., Maxmudov L.U., Xazratov A.P., Musinov D.S. Mintaqaviy iqtisodiyot. Darslik. - Samarqand: SamISI, "Fan bulog'i" nashriyoti, 2023.
16. Yavmutov D.Sh. Yashil iqtisodiyot"ga o'tish sharoitida mintaqa iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish metodologiyasini takomillashtirish (Buxoro viloyati misolida). DSc. dissertatsiya avtoreferati. - Buxoro: BuxDU, 2024.
17. Ishmuhamedov A.E., Rahimova M.R. Mintaqaviy iqtisodiyot. Darslik. - T.: Iqtisodiyot, 2010.
18. Abdullayev I.S. Mintaqaviy iqtisodiy tizimni optimal tartibga solishning mexanizmlarini takomillashtirish. DSc. dissertatsiya avtoreferati. - Toshkent: TDIU, 2017.
19. Yakubov I.O., Islomov A.A., Sunnatov M.N. Mintaqaviy iqtisodiyot: Darslik. - T., 2019.
20. Xudayberganov D.T. Tovarlar va xizmatlar bozori samaradorligini oshirishning metodologiyasini takomillashtirish. DSc. dissertatsiyasi. - Urganch: UrDU, 2023.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, yanvar, 1-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**